

## 2030 YIL - OIV EPIDEMIYASISIZ HAYOT SARI

*Shukurova Sevara Normo'minova**Guliston Davlat Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada OIV infeksiyasini profilaktika qilish, unga tashxis qo'yish va davolash sifatini yanada oshirish, aholi orasida OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar qamrovini oshirish, bemorlarga sifatli tibbiy va ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni zarur dori vositalari bilan to'liq ta'minlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** OIV infeksiyasi, profilaktika qilish, tashxis qo'yish, davolash OITSGa qarshi kurash.

OIV infeksiyasi — odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan surunkali yuqumli immunitet tanqiligi kasalligi bo'lib hozirgi kunda yurtimizda 45 mingdan ortiq shaxs ushbu kasallik bo'yicha yashab kelmoqdalar. Bu kasallik davosi yo'q dard bo'lib, bu dardga chalingan insonlar umri ohirigacha shu dard bilan birga yashashga maxkam etiladilar. Zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti natijasida erishilgan yutuqlardan biri antiretrovirus terapiya. Antiretrovirus terapiya-bu OIV infeksiyasi bilan zararlangan insonlar muntazam qabul qilishi kerak bo'lgan, ayni damda mazkur terapiyani muntazam qabul qilgan shaxslarda boshqa shaxsga kasallikni yuqtirish foizlari 95% ga qisqartiradigan, kasal onadan sog'lom farzand tug'ilishiga olib keladigan, virus bilan kasallanganlarga sog'lom insonlar kabi yashash imkoniyatini beradigan terapiyadir. OIV infeksiyasi bilan zararlangan shaxsga o'z vaqtida tashxis qo'yilib, unga terapiya joriy qilinsa va bemor shaxs dorilarni o'z vaqtida qabul qiladigan bo'lsa, undagi virus yuklamalar yuqish foizi 0 ga tenglashadi. Ko'pgina davlatlar qatori yurtimiz O'zbekistonda mazkur terapiya dorilari mutloq bepul tarzda beriladi. OIV infeksiyasini turli yo'llar bilan yuqtirgan bemorlarga ushbu doilarni o'z vaqtida qabul qilishlikdek mas'uliyati yuklatilgan holos.

2022 yil 18 mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan «Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun» mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, OIV infeksiyasini profilaktika qilish, unga tashxis qo'yish va davolash sifatini yanada oshirish, aholi orasida OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar qamrovini oshirish, bemorlarga sifatli tibbiy va ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni zarur dori vositalari bilan to'liq ta'minlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida bir qator chora tadbirlar ishlab chiqilib, "Odamning immunitet

tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023 yil 1yanvarda PQ -14 sonli qarori qabul qilinib, uning joylardagi ijrosi jadallik bilan ta'minlanib kelinmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2030 yilga borib OIV epidemiyasiga barham berish uchun «95-95-95» strategiyasi olg'a surilgan bo'lib, uning doirasida OIV infeksiyali shaxslarning 95 foizi o'z maqomini bilishlari, 95 foizi maxsus davolash kurslari bilan qamrab olinishlari hamda 95 foizi qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushishiga erishish maqsadi belgilangan.

Hozirda OIV infeksiyali shaxslarning 85 foizi o'z maqomini biladi, retrovirusga qarshi maxsus terapiya bilan davolash qamrovi 79 foizni, virus yuklamasining pasayishi 74 foizni tashkil etadi.

Mazkur strategiyaga muvofiq tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023–2027 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanmoqda (qarorga ilova).

Ushbu Dasturni amalga oshirish uchun 2023–2027 yillarda jami 120 mlrd so'm va 54 mln dollar yo'naltiriladi (Davlat budjetidan 110 mlrd so'm va 28 mln dollar, shuningdek, OITSga, sil kasalligiga va bezgakka qarshi kurashish Global jamg'armasi mablag'lari hisobidan 18 mln dollar, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining qarz mablag'lari hisobidan 7,5 mln dollar, xalqaro tashkilotlardan 9,5 mlrd so'm grant mablag'lari).

Dastur doirasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) OIV infeksiyasini erta aniqlash, tashxislash va davolash sifatini oshirish maqsadida:

– har yili kamida 3 mln aholi tekshiruvlar bilan qamrab olinadi va buning uchun 11,4 mln dona diagnostik test-tizimlari (ekspres, IFA testlari) xarid qilinadi;

– OITSga qarshi kurash markazlari OIV infeksiyasi diagnostikasi va davolash samaradorligini monitoring qilish uchun zarur 587 mingta diagnostik vositalar (immunoblot, PZR va SD4) bilan ta'minlanadi;

– 50 ming nafar aholini maxsus davolash kurslari bilan qamrab olish uchun 22 turdagi retrovirusga qarshi dori vositalari xarid qilinadi;

– OIV infeksiyasini onadan bolaga yuqishiga barham berish maqsadida OIV infeksiyali onalardan tug'ilgan 2 ming nafardan ortiq 6 oygacha bo'lgan bolalar quruq sut aralashmasi bilan ta'minlanadi;

b) sog'liqni saqlash organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda OIV infeksiyasi yuqishi ehtimoli yuqori guruhlar (giyohvandlar va boshqalar) orasida profilaktik tadbirlar olib boriladi;

v) aholi orasida keng targ'ibot-tushuntirish ishlari tashkil etiladi;

g) 2023 yil 1 iyunga qadar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2023 yil yakuniga qadar boshqa hududlarda FHDYO organlari va tibbiyot muassasalari o‘rtasida nikohlanuvchi shaxslarni OIV infeksiyasi bo‘yicha majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha elektron ma‘lumot almashinuv tizimi joriy etiladi;

d) 2023 yil yakuniga qadar OIV infeksiyasi aniqlangan holatlar monitoringini ta‘minlash, real vaqt rejimida dori va diagnostik vositalarning harakatlanishini kuzatib borish imkonini beruvchi elektron axborot tizimi yaratiladi;

Buning uchun BMTning Rivojlanish dasturi orqali 100 ming dollar ajratiladi.

ye) Respublika OITSGa qarshi kurash markazi laboratoriyasi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkaziladi va o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari xalqaro tan olinishi ta‘minlanadi;

j) hududiy OITSGa qarshi kurash markazlari va ularning tumanlararo laboratoriyalarining moddiy-texnika bazasi rivojlantiriladi, jumladan:

– 15 ta markaz binolari hamda ularning 20 ta tumanlararo laboratoriyalarida qurilish, kapital ta‘mirlash, rekonstruksiya va jihozlash ishlari amalga oshiriladi;

– markazlarning poliklinika bo‘limlari 3 turdagi (EKG, densitometr, UTT) va laboratoriyalari 21 turdagi tibbiy uskunalardan jihozlanadi;

z) mutaxassislarning kasbiy salohiyati oshiriladi, shu jumladan kamida 50 nafar tibbiyot xodimlari xorijga malaka oshirishga yuboriladi, OIV infeksiyasi bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Yurtboshimiz, davlatimiz va xalqaro tashkilotlar tomonidan qilinayotgan chora-tadbirlar, sa‘y-xarakatlar kasallik bilan yashayotgan insonlarning mas‘uliyatsizligi sabab, antiretrovirus terapiyasini o‘z qo‘lida qabul qilmasligi, tartibli xayot tarziga amal qilmasligi sabab OIV infeksiyasi zanjiri uzilmay balki jadallik bilan rivojlanib, hozirgi kunda dunyoda epidemiya darajasiga ko‘tarilgan kasalliklardan biriga aylangan.

Odamlarni bu ofatdan asrash uchun jamiyatimizda azaldan odat bo‘lib kelgan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, xalqimiz tomonidan qoralangan illatlarni (giyohvandlik) bartaraf etish kabi masalalarga e‘tibor qaratish zarur. , fohishalik, mastlik).

Chunki har bir inson sog‘lom turmush tarziga rioya qilib, quyida berilgan ko‘rsatmalarga amal qilsa, bu ofat kelajak avlodlarimizga hech qanday xavf tug‘dirmaydi.

OIV infeksiyasining oldini olish uchun:

- shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish;
- davolash jarayonida faqat sterilangan va bir martalik shpritslardan foydalanish;
- behayo jinsiy aloqalardan saqlanish.
- turmush o‘rtog‘iga sodiqlik.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shukurova, S. (2023). BULLYING IN SCHOOLS: THE STATE OF KNOWLEDGE AND EFFECTIVE INTERVENTIONS. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 4), 74-77.
2. Sevara, S. (2023). AIDS PREVENTION AND HEALTH AMONG STUDENTS IN THE 21 ST OF CENTURE. *Academia Science Repository*, 4(6), 728-732.
3. TAGAYMURATOVA, G. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDAGI O'RNI VA UNING QISQACHA TARIXI. *Journal of Fundamental Studies*, 2(2), 41-45.
4. Tuychiyevna, T. G. (2024). DIGITAL TECHNOLOGY AND ITS CAPABILITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 4(02), 27-31.
5. Tagaymuratova, G. T. (2023). BIOTIBBIYOTDA ZAMONAVIY ILMIY YANGILIKLAR VA ULARNING AXLOQIY MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 677-684.
6. Tog'Aymurotova, G. T. Y. (2022). BIOETIKANING PAYDO BO'LISHI UCHUN TARIXIY ZARURIYATNING YUZAGA KELISHI. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 479-486.
7. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. *Наука и образование сегодня*, (4 (5)), 59-60.
8. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.
9. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.
10. 8. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.
10. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYANING ROLI. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1313-1317.
11. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).

12. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.
13. Xolnazarova, M. (2022). Factors and socio-psychological causes of behavior deviation in minors. *NeuroQuantology*, 20(20), 1781.
14. Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 91-95.
15. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Xolnazarova, M. X. (2017). Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. *Toshkent-2017 yil*.
16. Xolnazarova, M. X., & Muxliboyev, M. Q. Yosh va pedagogic psixologiya. *Fan va texnologiya nashriyoti*.
17. <https://kun.uz/news/2023/02/02/ozbekistonda-45-mingdan-ortiq-shaxs-oiv-kasalligi-bilan-yashab-kelmoqda#!>
18. <https://lex.uz/docs/6364828>
19. <https://xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-95-95-95-strategiyasi-kozda-tutilgan>
20. <https://aidlix.com/index.php/sg/article/view/1143>